

GINESEY HAQIDA UMMUMIY TUSHUNCHА VA UNING XILMA XILLIGI

*Odiljonov Boymurod Elmurod o'g'li**Andijon Davlat Pedagogika Instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti
Biologya yo'nalishi 1- bosqich 101-guruh talabasi*

Annotatsiya: Ginesey (yun. gyne — ayol, oikion — uy, boshpana) — gulning reproduktiv qismi, hamma mevabargchalar yig'indisi.

Kalit so'zlar: genesey , apokarp, sinokarp, lizikarp, parakarp.

Ginesey (yun. gyne — ayol, oikion — uy, boshpana) — gulning reproduktiv qismi, hamma mevabargchalar yig'indisi. Bir-biri bilan qo'shilmagan, erkin joylashgan, har biri alohida urug'chi hosil qiladigan mevabargchalardan iborat ginesey. Apokarp ginesey deb ataladi. Apokarpli ginesey eng sodda bo'lib, magnoliya, pion va ayiqtovonlar uchun xos. Ba'zan ginesey bitta mevabargcha (urug'chi)dan iborat (mas, burchoqdoshlarda). Evolyutsiya davomida mevabargchalar qo'shilib ketib, 3 xil tipdagi senokarp ginesey hosil bo'ladi. Yon tomonlari bilan o'zaro qo'shilib o'sgan yopiq mevabargchalar (ularning urug' kurtagi choklari bo'ylab, ya'ni uyachalar burchagida joylashgan) sinkarp ginesey hosil qiladi (lola). Sinkarp gineseydan ayrim mevabargchalarning ajralib chiqishi, birok ular qirralarining ajralib ketmasligi tufayli parakarp ginesey hosil bo'ladi (bodring, qovoq, lolaqizg'aldoq). Parakarp ginesey bir uyali bo'lishi va urug'kurtaklari ginesey devorida joylashganligi bilan sinkarp gineseydan farq qiladi. Boshqa hollarda parakarp ginesey bevosita apokarp gineseydan kelib chiqqan. Sinkarp ginesey tugunchasi to'siqlarining yo'qolib ketishi natijasida bir uyali lizikarp ginesey vujudga kelgan. O'zaro qo'shilib ketgan bir necha mevabargchalardan hosil bo'lgan gineseymurakkab urug'chi deyiladi.

Ginetseyning eng muhim qismi tuguncha hisoblanadi, unda urug'kurtak joylashadi, gul tugunining ustida ingichka ustuncha, uning uchida esa shakli har xil tumshuqcha boladi

Ustuncha tum shuqchani tuguncha bilan birlashtiradi va tum shuqchani ozm i-ko'pm i balandlikka ko'tarib changlarni qabul qiladi ham da changlanishni osonlashtiradi.

Tugunchaning ichida urug'murtak joylashadi. Urug'lanshdan keyin, bulardan urug ' hosil b o 'lad i. Shunday qilib, tuguncha urug murtaklari bilan birga ginetseyning eng muhim qismini tashkil etadi. Talaygina sodda oilalarda masalan, k o 'p c h ilik ayiqtovondoshlar, magnoliyadoshlar, ko'knorguldosh va boshqalarda ustuncha taraqqiy etmasdan qoladi.

G in ets ey n in g h a r xi! tiplari:

I - tuguncha; 2 - ustuncha; 3 - tumshuqcha.

Bunda tumshuqcha tugunchaning ustida turadi va bandsiz tumshuqcha deb ataladi. Sham ol yordam ida changlanadigan ba'zi o'simliklar (g'aladoshlarda) ham ustuncha taraqqiy etm aydi. B a'zi o'simliklar (qulupnay, g'ozpanja yoki beshbarg) gul tuguni baravar o'smaganligi sababii ustuncha tugunchaning yonidan, labguldoshlar. karnpirchopondoshlarda esa tuguncha asosidan o'sib chiqadi. Urug'chi (ginetsey) xillari. Bir gulning urug'chi barglari (meva bargiari) bir-biri bilan tutashm agan holda, har qaysisi alohida urug'chiga aylansa, bunday urug'chi apokarp ginetsey deb ataladi.

Qazilma holda topilgan qadimgi yopiqurug'lik o'simliklardan Degeneriada eng sodda monom er bitta m eva bargdan tashkil topgan apokarp ginetsey bo'lgan. Hozirgi o'simlik lardan an apokarp ginetsey ayiqtovondoshlar, atirguldoshlar, zirkdoshlar va boshqa oilalarning vakillarida uchraydi.

Evolyutsiya jarayonida eng sodda meva barglarning ixtisoslashuvidan uchlari qayriiib stilodiy (ustuncha) shakliga kirgan. Ayiqtovondoshlar oilasining vakillarida eng sodda m evachi barglar uchraydi. Ginetseyning evolyutsiyasida ro'y bergan eng muhim o'zgarishlardan biri, bu senokarp ginetseyning va ostki tugunchaning rivojlanishidir. Bir necha urug'chi barglardan tashkil topgan ginetsey senokarp ginetsey deb ataladi. Senokarp ginetseyda mevabarglarning tutashib ketishi ko'pincha tugunchada bo'lib, stilodiy tutashm asdan qolishi mumkin (masalan, labguldoshlar, murakkabguldoshlar, chinniguldoshlar va boshqalar). Tutashm ay qolgan stilodiy va tumshuq parraklariga qarab ginetsey qancha mevachi barglardan yuzaga kelganligini aniqlash mumkin.

Ba'zi oilalarda (kam pirchopondoshlar, sigirquyruqdoshlar, butguidoshlarda) m eva barglar butuniay tutashib, ustunchani hosil qiladi. Senokarp ginetsey uch xil b o'ladi: sinkarp, Parakarp va lizokarp.

Sinkarp ginetsey yoki k o 'p chanoqli (uyali) urug 'chi. Sinkarp ginetsey apokarp ginetseydan hosil bo'ladi. U iarda meva barglarning chetlari ichkariga o'ralib , yonlari bir-biriga tutashadi va chanoq (uya) deb ataladigan xonalarga ajralgan bitga gul tuguni hosil bo'ladi.

Parakarp ginetsey (yunon. para - oldida yondosh, karp os - meva) deb bir necha mevachi barglarning yig'indisidan hosil bo'ladigan bir xonali urug'chiga aytildi. (gunafshadoshlar, qaraqatdoshlar, gazak o'tdoshlar, shum g'iyadoshlarga xos beigidir)

Lizikarp ginetsey (yunon. lizis - eritish yo'qotish) evolyutsiya jarayonida sinkarp ginetseyning chanoqlar orasidagi pardasining erib yo'qolib ketishidan bir xonali tuguncha hosil bo'ladi. Bunday ginetsey primula va chinniguldoshlarga xosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Batanika (о‘smlikar morfalogiyasi va anatomiysi) M. I. Ikromov, X.N. Normurodov, A. S. Yuldashev.
2. Batanika (о‘smlikar anatomiysi va morfalogiyasi) A.S .Dariyev , T.A.Madumarov, E.Y. Ro‘zmatov.
3. И.Р Аскаров, Н.Т Муйдинов // Qoramol terisidan tibbiyotda foydalanish uchun tovarlar olish va kimyoviy tarkibini aniqlash // Журнал химии товаров и народной медицины. 2022. 1 (1), 36-55.
1. I.R Askarov, N.T Muydinov // Determination of chemical composition and antioxidant activity of lemon varieties grown in the natural climate of Uzbekistan ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 2021. 11(11), 599-603.
2. A.I Rakhmonovich, K.S Mizaramovich, M.N Tohtarovich // Antioxidant activity of lemon varieties meyera and Uzbek fruit // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. 2022. 12 (5), 799-801.
3. Radjabov O.I., Turayev A.S, Atajanov A.Yu, Muydinov N.T, Avezov H.T, Ruziyeva M.J, Azimova L.B, Buriyev D,A // Study of physico-chemical properties of biomaterial obtained based on structured collagen // Austrian Journal of Technical and Natural Sciences № 7–8 2022 July – August. V. 48-53.
4. Мўйдинов Н.Т., Раджабов О.И., Халилова Г.А., Гулямов Т., Атажанов А.Ю, Тураев А.С. Коллаген асосида олинган плёнкаларнинг структурасини ва реологик хоссаларини ўрганиш // Фармацевтика журнали. Тошкент. 2018. №3. – Б.69-72.
5. Патент РУз № IAP 05873. Гулямов Т., Муйдинов Н.Т., Атажанов А.Ю., Жумаева Ш.Х., Шомуротов Ш.А., Раджабов О.И., Тураев А.С. «Способ получения аппликационного средства». 20.06.2019. // Расмий ахборотнома. –2019. –№7.
6. Muydinov N.T., Radjabov O.I., Gulyamov T., Turaev A.S., Atadzhanov A.Yu., Khasanov Sh.M., Yuldashev U.A. Studying role of collagen-film in the wound healing process // XIII International Symposium on the Chemistry of Natural Compounds. Shangai. 2019. –P.152.